


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgusidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda ba'zan uchinchi sektor deb ataluvchi xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a, 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3559,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 664,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,0 % ni tashkil etdi.




**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
Buxoro viloyati	3559670,7	112,0	1872,8
Buxoro shahri	2289193,0	113,8	8219,7
Kogon shahri	103823,7	107,6	1707,6
tumanlar:			
Olot	72904,5	107,6	745,4
Buxoro	117591,6	108,8	718,3
Vobkent	111582,2	110,2	812,1
G'ijduvon	314864,2	109,9	1049,9
Kogon	58653,9	118,6	765,7
Qorako'l	91174,1	107,5	563,5
Qorovulbozor	67218,2	100,1	3713,7
Peshko'	84157,8	109,0	697,8
Romitan	98184,0	107,9	705,9
Jondor	77156,1	109,6	449,6
Shofirkon	73167,4	109,0	418,6

2019-yil yanvar-iyun oylarida Kogon tumani (118,6 %), Buxoro shahri (113,8 %), Vobkent (110,2 %), G'ijduvon (109,9 %) va Jondor (109,6 %) etakchi o'rinni egalladi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qorako'l (107,5 %) va Qorovulbozor (100,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 64,3 % ni tashkil etadi. Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (8,8 %), Buxoro (3,3 %) va Vobkent (3,1 %) tumanlarida qayd etilgan.


2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %



Xizmatlar sohasining eng past ko'satkichlari Kogon (1,6 %), Qorovulbozor (1,9 %), Olot (2,0 %), Shofirkon (2,1 %) va Jondor (2,2 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1872,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 110,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlar hajmi 325,3 ming so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar (o'sish sur'atlari), %




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Kogon tumani (15,8 %), Buxoro shahri (13,0 %), Vobkent (8,4 %), G'ijduvon (8,1 %) va Jondor (7,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Olot (105,7 %), Qorako'l (105,7 %) va Romitan (106,0 %) tumanlarida qayt etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo, transport, moliyaviy va ta'lim xizmatlari hajmining o'sishi kuzatildi.

**2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan
ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm**



Bunday hajmning oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanishi mumkin, jumladan: Internet-sotish, yangi savdo markazlari, oziq-ovqat tashkilotlari, mehmonxonalarni ochish, ta'lim muassasalari xizmatlarini kengaytirish, ko'ngilochar industriyasida katta tanlov kabi yangi turdag'i xizmatlar bozoriga chiqish.


**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3559670,7	112,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	174467,2	111,7
Moliyaviy xizmatlar	485379,9	174,1
Transport xizmatlari	899024,7	105,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	823273,1	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	155703,1	102,9
Savdo xizmatlari	1143293,8	104,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	96202,4	103,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	157516,1	119,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67139,3	106,9
Ijara xizmatlari	94872,8	101,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78558,0	103,0
Shaxsiy xizmatlar	75600,3	103,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	44876,2	104,6
Boshqa xizmatlar	87036,9	103,4

Bugungi kunda O'zbekiston moliya-bank tizimi barqaror bo'lib, qat'iy belgilangan xalqaro standartlarga javob beradi. So'nggi yillarda soddalashtirilgan kreditlash jarayoni tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun qulaylik yaratmoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 174,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (119,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,7 %), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (106,9 %) qayd etildi.

Ma'lumot uchun:



**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Moliyaviy
xizmatlar



Ta'lim sohasidagi
xizmatlar



Aloqa
va axborotlashshtirish
xizmatlari



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
xizmatlar



Transport
xizmatlari




Me'morchilik sohasidagi
xizmatlar




Savdo
xizmatlari



Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar



Shaxsiy xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmatlari




Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Ijara xizmatlari

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Joriy davrda, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ularning ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.



Shu bilan birga, eng katta ulush transport xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4,4 %) kuzatildi.

Savdoning iqtisodiy mohiyati - ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga sotish va sotib olish yo'li bilan tovarlarni sotishga vositachilik qilishdan iborat. Savdo, faoliyat sohasi sifatida pul muomalasi va mamlakatning moliyaviy tizimi bilan chambarchas bog'liq. Savdo orqali tovarlarning asosiy qismi ularni bank sohasiga muntazam ravishda tushib turadigan aholining pul daromadlariga almashtirish orqali sotiladi

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1143,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

2018-yil yanvar-iyun




2019-yil yanvar-iyun

Hajm 1143,3 mlrd so'm	O'sish sur'ati 104,5 %
-----------------------------	---------------------------

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi - 79,8 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,5 % ga yetdi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida
savdo xizmatlarining tarkibi, %**



- **Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda**
- **Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hisoblanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi vosita sifatida boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirdi va mukammallashtirdi hamda ilm-fanga asoslangan yangi turdag'i iqtisodiyotning shakllanishiga, inson intellektual mehnatining mahsuli bo'lgan axborot va mahsulotlari foydalanimishiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda.


2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 174,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishi 11,7 % ga etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,2 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiyligi hajmida nashriyot xizmatlari 1,9 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 0,8 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,5 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,4 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi




Televidenie dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng kam ulushni 0,2 % ni tashkil etadi.

Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 157,5 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 19,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatkichlarini taqqoslanishi



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-iyun oylarida 113,4 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir.

Shahar va tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %



Shofirkon tumani	100,1 %
Jondortumani	100,1 %
Vobkent tumani	100,2 %
Buxoro tumani	100,2 %
Kogon shahri	100,3 %
G'ijduvon tumani	100,6 %
Olot tumani	100,6 %
Qorovulbozor tumani	101,7 %
Peshko' tumani	101,8 %
Kogon tumani	102,7 %
Qorako'l tumani	114,2 %
Romitan tumani	115,4 %
Buxoro shahri	127,6 %

Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Buxoro shahrida 127,6 % ni tashkil etdi.


Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Romitan (115,4 %), Qorako'l (114,2 %) Kogon (102,7 %), Peshko' (101,8 %) va Qorovulbozor (101,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida eng past o'sish sur'ati Jondor va Shofirkon – 100,1 % tumanlarida qayd etildi.

2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 2,9 % ga o'sdi, hajmi esa 24,3 mlrd. so'mga oshdi va 155,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 86,7 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 13,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida 100,9 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 14,6 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Peshko' tumanida esa eng kichik hajm – 0,9 mlrd. so'm qayd etildi. O'tgan yilga nisbatan bu hajm 0,2 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**




2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 67,1 mld. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %



Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahri (112,4 %), Qorako'l (110,2 %), G'ijduvon (108,3 %) tumanlarida va Buxoro shahrida (107,9 %) qayd etildi.

2019-yil 1-iyul holatida viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot va korxonalar soni 21552 birlikga teng bo'ldi, ulardan 13897 birligi xizmatlar sohasiga jalb qilingan, bu ularning umumiy sonining 64,5 % ni tashkil etdi.


**2019-yil 1-iyul holatiga
korxona va tashkilotlarning umumiy sonida
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,5 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-iyul holatiga, xizmatlar sohasida 11149 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari (32,4 %), tashish va saqlash (9,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (4,2 %), axborot va aloqa (1,9 %), boshqa turlar - 42,2 %. tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning sonini taqqoslasak, 2019-yil 1-iyul holatiga kelib u, 2748 birlikga, o'sish sur'ati 24,6 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi va yuqori sifati, odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, bo'sh vaqt ni ko'payishiga imkon beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**65-223-79-41****71-230-83-13**